



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 15-may, № 94 (8717)

Chorshanba Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## OSIYO XOTIN-QIZLARI FORUMINING SAMARALI YAKUNLARI YUQORI BAHOLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-may kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining o'rinbosari, "BMT-Ayollar" tuzilmasi ijrochi direktori Sima Sami Baxus boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



BMT delegatsiyasi shu kunlarda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Osiyo xotin-qizlari forumi doirasida mamlakatimizda bo'lib turibdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining gender tenglik masalalari bo'yicha yetakchi instituti rahbari Prezidentimizga Bosh kotib Antoniu Guterrishning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekistonda xotin-qizlarning mavqei tubdan yaxshilash va jamiyatdagi maqomini oshirishga qaratilgan samarali islohotlarga yuksak baho berildi.

Uchrashuvda mamlakatimizning "BMT-Ayollar" tuzilmasi bilan konstruktiv hamkorligini yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va manfaatlarini ilgari surish sohasidagi barcha asosiy xalqaro konvensiyalarga qo'shilgan, BMTning tegishli komissiyasi ishida faol ishtirok etmoqda.

Osiyo xotin-qizlari forumining samarali yakunlari yuqori baholandi. Ushbu forumni Osiyo mintaqasida ayollar huquqlarini kengaytirish masalalari bo'yicha doimiy muloqot platformasiga aylantirish muhimligi ta'kidlandi.

O'zaro hamkorlik bo'yicha, shu jumladan, mintaqaviy darajadagi aniq loyiha va dasturlarni o'z ichiga olgan o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan dasturni qabul qilish zarurligi qayd etildi.

"BMT-Ayollar" tuzilmasining mamlakatimizda vakolatxonasini ochish masalasi qo'llab-quvvatlandi.

O'z.A.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Sima Sami BAXUS:

## O'ZBEKISTONDA AYOLLAR DAVLATNING USTUVOR MAQSADLARI MARKAZIDA

BMT Bosh kotibi o'rinbosari, "BMT-Ayollar" tuzilmasi ijrochi direktori Sima Sami Baxus Samarqandda bo'lib o'tgan Osiyo xotin-qizlari forumida ishtiroki davomida "Dunyo" AA uchun eksklyuziv intervyu berdi va unda ushbu anjumanning ahamiyati hamda mamlakatimizda ayollar huquqlarini ta'minlash bo'yicha islohotlar samaralarini qayd etdi.

### Dunyo nigohi

— **Globalashuv jarayonlari jadal sur'atlar bilan davom etayotgan murakkab sharoitda inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma'noda, O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan o'tkazilayotgan Osiyo xotin-qizlari forumi, sizningcha bu borada qanday yechimlar beradi?**

— Ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish inson huquqlari ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Biroq muhim yutuqlar e'tirofini topganiga qaramay, dunyoda xotin-qizlarning iqtisodiyotda teng va to'liq ishtirok etish huquqi bajarilmaganligicha qolmoqda. Masalan, jahon bo'ylab 2,7 milliarddan ortiq ayollar qonuniy ravishda erkaklar bilan bir xil ish tanlash huquqiga ega emas. Ishchi kuchi ishtirokidagi gender tafovuti 1990-yildan beri 30 foiz darajada saqlanib qolinmoqda. Shuningdek, ish bilan band bo'lgan xotin-qizlar erkaklarga qaraganda o'rta 20 foiz kam maosh oladi. Bu nafaqat adolatsizlik, balki samarasizlik hamdir. Mamlakatlar o'z aholisining teng yarmini e'tiborsiz qoldira olmaydi.

O'zbekiston 2027-yilgacha kambag'allikni ikki baravar qisqartirish bo'yicha ulkan maqsadni o'z oldiga qo'ygani. Bunda xotin-qizlarning o'ziga xos ehtiyoji va muammolari hisobga olingani juda muhim. Osiyo xotin-qizlari forumi ayollarning mamlakat ustuvor

maqsadlari markazida ekanligini tasdiqlash uchun o'z vaqtda zarur imkoniyatdir.

Forum xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ayollarni kambag'allikdan olib chiqadigan hamda ularning jamiyat va iqtisodiyotga qo'shgan hissasini e'tirof etadigan yangi tashabbuslar haqida fikr yuritish uchun xos usullarini topish uchun turli ishtirokchilarni birlashtirdi.

Shunday qilib, bu tashabbuslar amalga oshirilsa, har qanday iqtisodiyotni rivojlantirish va Barqaror rivojlanish maqsadlarini ilgari surishda xotin-qizlar huquqlariga investitsiya kiritayotgani alohida mamnuniyat bag'ishlaydi. Umid qilamizki, forum natijalari va yechimlar nafaqat O'zbekiston, balki butun Osiyo davlatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

— **Forumda gender tenglikni ta'minlash masalalari muhokamasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu, ayniqsa, Osiyo mamlakatlari uchun juda muhim. Mazkur yo'nalishda so'nggi yillarda O'zbekistonda keng ko'lami islohotlar amalga oshirilib, mamlakatimiz xalqaro maydonda "gender chempioni" sifatida e'tirof etilmoqda. Bu borada O'zbekiston tajribasining qaysi jihatlari Osiyo davlatlari uchun dolzarb deb hisoblaysiz?**

## JAHON TAJRIBASI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR



Avval xabar berilganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida bildirgan taklifiga asosan 13-14-may kunlari yuqori

saviyada bo'lib o'tgan "Xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga mintaqaviy yondashuv" mavzuidagi Osiyo xotin-qizlari forumiga Samarqand shahri mezbonlik qildi.



## EZGU SA'Y-HARAKATLAR BIRGALIKDA VA HAMJIHATLIKDA DAVOM ETTIRILADI

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida ilgari surgan tashabbusi asosida tashkil qilingan Osiyo xotin-qizlari forumi ayollarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalaridagi faolligini yanada oshirish, o'zaro tajriba almashish, do'stona aloqalarni mustahkamlashda chinakam muloqot maydoniga aylandi.

Anjuman natijasida qabul qilingan Samarqand deklaratsiyasi esa ezgu islohotlarning amaliy ifodasi bo'lib, qit'a mamlakatlari va xalqlarining bu boradagi sa'y-harakatlarini yanada izchil davom ettirishda, shubhasiz, muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur forumda qatnashgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining xulosalari va fikr-mulohazalari bilan qiziqdik.

### Aks sado

**Ko'tarilgan masalalar dolzarb ahamiyatga ega**

**Feruzka NIG'MATOVA, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi:**

— Osiyo mamlakatlari xotin-qizlarining bir davraga yig'ilib global miqyosdagi dolzarb masalalar yuzasidan o'tkazgan muloqoti nafaqat mintaqada, balki dunyoda tinchlik va taraqqiyotni ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz. Zero, bugungi kunda Osiyo mintaqasining jahon taraqqiyotida tutgan o'rni tobora ortib borayotir.

Mazkur forumning ilk bor O'zbekistonda o'tkazilishi esa keyingi yillarda yurtimizda gender tenglikni ta'minlash

hamda xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida olib borilayotgan keng ko'lami islohotlarning dunyo hamjamiyati tomonidan yuqori darajada qo'llab-quvvatlanayotganidan ham dalolat beradi.

Forumning birinchi ish kunida BMTning Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasi, Pekin deklaratsiyasi va Harakat platformasi qoidalarini amalga oshirish bilan bog'liq xalqaro, mintaqaviy va milliy tajriba hamda innovatsion yondashuvlar keng muhokama qilindi.

Ikkinchi ish kuni ham qizg'in va faollik bilan o'tdi. Unda xotin-qizlar ta'limini rivojlantirish, iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ushbu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan NNT, fuqarolik jamiyati institutlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasida muhim takliflar ilgari surildi.

Deputat sifatida o'zim uchun muhim yo'nalishlarni qayd etib oldim. Misol uchun, mintaqadagi nodavlat tashkilotlarning xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi ilg'or tajribasi, amaliyoti va innovatsion yondashuvlariga bag'ishlangan 8-parallel sessiyasida ko'tarilgan masalalar men uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi.

Umuman olganda, mazkur forum gender siyosatining turli sohalar bo'yicha o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashishda hamkorlik va hamjihatlilikni yanada mustahkamlash bo'yicha yangi istiqbollarni ochishiga ishonamiz. Yakunda qabul qilingan Samarqand deklaratsiyasi esa aytish joizki, barcha davlatlarning xotin-qizlarga taalluqli masalalarda ezgu intilishlarining amaliy ifodasi bo'lishi, muqarrar.



## QISQA SATRLARDA

### O'zbekiston energetika haftaligi o'tkazilmoqda

Poytaxtimizdagi "O'zeksomarkaz" milliy ko'rgazmalar majmuasida O'zbekiston energetika haftaligi o'tkazilmoqda.

Energetika vazirligi, "O'zbekneftgaz" AJ hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar hamkorligida uyushtirilgan mazkur haftalikda dunyoning o'ttizga yaqin davlatlaridan 450 ta ishlab chiqaruvchi kompaniyaning yoqilg'i-energetika tarmog'iga oid zamonaviy uskunalari va texnologiyalaridan namunalari namoyish etilyapti.

### Oziq-ovqat xavfsizligi — dolzarb masala

Qashqadaryoda "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi ekinlarining genetik resurslaridan unumli foydalanish hamda yetishtirishning zamonaviy ilg'or texnologiyalarini qo'llash istiqbollari" mavzuida xalqaro ilmiy-texnik anjuman bo'lib o'tdi.

Unda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish ko'lamin yanada oshirish, dehqonchilikda yangi texnologiyalardan foydalanish, hududlarning iqlim-sharoitiga mos, chidamli ekin navlarini yaratish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari muhokama etildi.

"Xalq so'zi".

## QOG'OZ SHAKLIDAGI DALOLATNOMA YOZUVLARI RAQAMLASHTIRILDI

Adliya vazirligi ma'lumotiga ko'ra tizimda arxiv hujjatlarini raqamlashtirish orqali davlat xizmatlari yanada qulay va ovoragarchiliklarsiz ko'rsatilmoqda. Jumladan:

- fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDY) organlarida saqlanayotgan **60 million**dan ortiq qog'oz shaklidagi dalolatnoma yozuvlari raqamlashtirilib, axborot tizimlariga kiritildi;
- fuqarolar tomonidan ayrim vakolatli tashkilotlarga taqdim etiladigan hujjatlarining axborot tizimi orqali olinishi yo'lga qo'yilishi natijasida o'tgan yilda **20 tonnadan** ziyod qog'oz va **21 milliard** so'mdan ortiq mablag' tejaldi.
- FHDY organlari tomonidan **5 ta** xizmatni tezlashtirilgan tartibda ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yildi.



# JAHON TAJRIBASI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

## SimaSami BAXUS: O'ZBEKISTONDA AYOLLAR DAVLATNING USTUVOR MAQSADLARI MARKAZIDA

Butun dunyoda gender tenglikka faqat bir davlatning o'zida erishib bo'lmaydi. Bu mamlakatlar o'rtasidagi hamjihatlik va hamkorlikni talab qiladi. 2023-yilda o'ladagi zo'raonlikni jinoyat sifatida tan olish va yaqinda saylov kvotasining 30 foizdan 40 foizga ko'tarilishi kabi qonunchilikdagi yutuqlar mintaqadagi va undan tashqaridagi boshqa mamlakatlar uchun ham dolzarb sanalishi mumkin bo'lgan to'g'ri yo'nalishdagi qadamlardir.

"Samarqand birdamlik tashabbusi", "Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollar kengashi" yoki Osiyo xotin-qizlari forumi kabi tadbirlar hamkorlikni mustahkamlash va birgalikda ishlashning yorqin namunasidir. Gender tenglikni ta'minlash bo'yicha ushbu harakatlar tashabbuskori bo'lgan O'zbekiston hukumati va ayollar huquqlarini himoya qilayotgan Prezident Shavkat Mirziyoyevning sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaymiz.

Joriy yilning mart oyida BMT Xotin-qizlar holati bo'yicha komissiyasining 68-sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiya davomida gender tenglikka erishish va kambag'allikka barham berish, institutlar salohiyatini hamda moliyalashtirishni kuchaytirish, Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi tamoyillarini amalga oshirish orqali xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Samarqand forumini 68-sessiyaning mantiqiy davomi deb ayta olamizmi? Agar shunday bo'lsa, forumda 68-sessiya hujjatlarida belgilangan vazifalar qay darajada o'z aksini topdi?

"CSW68" (BMTning Xotin-qizlar holati bo'yicha komissiyasi) xulosalari xotin-qizlar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, ayollar kambag'alligini tugatish hamda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar uchun resurslar, shuningdek, ta'lim, qarorlar qabul qilish, mulkka egalik va ayollar boshchiligidagi tashabbuslarni resurslar bilan ta'minlash bo'yicha "Yo'l xaritasini" belgilaydi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo va Ozarbayon uchun "CSW68" bo'yicha ko'p tomonlama maslahatlashuvlarini o'tkazishda muhim rol o'ynadi.

"CSW68"dan kelib chiqadigan asosiy tavsiyalar Osiyo xotin-qizlari forumi davomida, jumladan, bandlik, ta'lim va kadrlar tayyorlash, gender byudjeti kabi muhim sohalar bo'yicha taqdim etildi. Bu Markaziy Osiyo chegaralaridan tashqarida ham barcha darajada juda kuchli davomiylik va mas'uliyatni ko'rsatadi.

"BMT-Ayollar" tuzilmasining 2022 — 2025-yillarga mo'ljallangan strategik reja si butun dunyo bo'yab gender tenglikka erishish va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Shu ma'noda, forumda ko'tarilgan masalalar va Samarqand deklaratsiyasi tuzilmaning keyingi rejalarida o'z aksini topadimi?

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2022 — 2025-yillarga mo'ljallangan Ayollar strategik reja si iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, xotin-qizlarga nisbatan zo'raonlikka chek qo'yish, boshqaruv va qarorlar qabul qilishda ishtirok etishni nazarda tutadi.

Strategik rejada forumda ko'rib chiqilgan ko'plab yo'nalishlar qayd etilgan. Munosib mehnat va tadbirkorlikdan tortib, "yashil" iqtisodiyotda parvarishlash tizimlari va yetakchilikni ta'minlash, ijtimoiy normalarni o'zgartirish, kambag'allikni qisqartirish, gender tenglikni moliyalashtirishgacha bo'lgan muhim yo'nalishlar o'z aksini topgan.

Biz barqaror rivojlanish va gender tenglikni ta'minlash uchun nafaqat ushbu forumda, balki undan keyin ham O'zbekiston hukumati bilan hamkorlikni davom ettirish tarafdorimiz.

"Dunyo" AA.  
Samarqand



Mazkur nufuzli anjumanning ikkinchi kunida ishtirokchilar o'zaro tajriba almashish hamda xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlarning bu boradagi zamonaviy yondashuvlarini o'rganish maqsadida "Xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo'raonlikning barcha shakllarini bartaraf etishning mintaqaviy jihatlari: ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sirini bartaraf etish bo'yicha preventiv chora-tadbirlar" hamda "Mintaqadagi nodavlat tashkilotlarning xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi ilg'or tajribasi, amaliyoti va innovatsion yondashuvlari" kabi mavzulardagi parallel sessiyalar o'z ishini davom ettirdi.

Aytilganidek, bugun dunyo har soniyada o'zgarib turibdi va oldimizga o'ta dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Aholi, ayniqsa, xotin-qizlar bu vaziyatda eng birinchi bo'lib qiyinchiliklarga to'qnash kelayotir. Agar iqlim o'zgarishi va dunyoning turli burchagida yuz berayotgan mojarolar shu tarzda davom etadigan bo'lsa, yana 158 million xotin-qizni qashshoqlik kutmoqda. Dunyoda har uchinchi ayol uyda, jamoat joylarida, ishda, turli mediaplatformalarda tahdid va zo'raonlikka uchrayotgani ham bor gap. Natijada dunyo iqtisodiyotiga ayollarning zo'raonlikka uchrash krizislarini ijtimoiy institutlar uchun yiliga 6 trillion AQSH dollariga tushmoqda.

Shunga qaramay, xotin-qizlarga qaror qabul qilish jarayonida qatnashish imkoniyati kam taqdim etilayotir. O'sh ayollar ijtimoiy haqiqatga intilib, qator global harakatlarga bosh bo'lmoqda, onalar o'limi kamaymoqda. Boshlanqich ta'limga jalb etilayotgan qizlar soni ko'paymoqda. Ammo bu kabi yutuqlar muammolar soyasida yo'qolib qolmasligi kerak.

Chunqil bugun dunyoda ayollar ishlagani holda erkaklarga qaraganda 20 foiz kam daromad oladi. Ko'p hollarda ularning mehnati qonunchilik yoki tibbiy sug'urta bilan himoyalangan. Bugun butun dunyo miqyosida band bo'lgan ayollarning 60 foizi noformal iqtisodiyot hissasiga to'g'ri kelmoqda. Kam daromadli mamlakatlarda bu raqam 90 foizni tashkil etadi. Butun dunyoda ayollar 75 foiz holatda o'z xonadonidagi haq to'lanmaydigan ro'zgor ishlarni bajaradi. Shunday bo'lsa-da, har o'ninchi ayol murakkab qashshoqlik holatida kun kechirishga majbur.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayollarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish nafaqat tinchlik, balki o'sha davlat iqtisodiy o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, oilada ayol kishining iqtisodiy daromadga ega bo'lishi bolalarning ta'limi va salomatligiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Forumda ishtirok etgan 30 dan ortiq xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar vakillari, jumladan, Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo mamlakatlarini parlamentlari ayol a'zolari, hukumatlari rahbarlari, chet davlatlarning yurtimizdagi vakolatxonalarida hamda xorijiy tashkilotlarning 40 dan ziyod a'zolari O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlarni yuqori baholadilar.

Darhaqiqat, Prezident Shavkat Mirziyoyevning yuksak siyosiy irodasi tufayli xotin-qizlar manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash va oilalar mustahkamligi masalalari mamlakat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Natijada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma'naviy hayotimizda, muhim qarorlar qabul qilinishida xotin-qizlarning ishtiroki

Tatyana VALOVAYA, BMTning Jenevadagi bo'limi bosh direktori: — Forum turli sohalarda doimiy gender tengsizliklarni bartaraf etish bo'yicha global sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'ldi, desak, ayni haqiqat. Ushbu nufuzli anjumanning gender kun tartibini yaxlit tarzda muhokama qilish uchun muhim imkoniyat yaratdi.

Ma'lumki, BMT Bosh kotibi tashabbusi bilan joriy yilda Kelajak sammiti o'tkaziladi. Unda xalqaro va mintaqaviy taraqqiyotning dolzarb muammolarini hal etishga, tashkilotning ta'siri va samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan masalalar ko'riladi. Bu sammit mamlakatlar o'rtasida o'zaro ishonchni tiklash va umumiy kelajakni qanday himoya qilish haqida yangi xalqaro konsensusni shakllantirish uchun noyob imkoniyatni taqdim etishi bilan ham ahamiyatli. Qolaversa, gender tenglikni "Kelajak uchun pakt"ning barcha bobida markazlashtirilgan tarzda joylashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Samarqand forumi esa Kelajak sammiti oldidan muhim ahamiyat kasb etdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Mahinur O'zdemir GO'KTASH, Turkiya Oila va ijtimoiy xizmatlar vaziri:

— Tarixdan ma'lumki, turkiy xalqlar va davlatlarda har doim xotin-qizlarni himoya qilish va oila mustahkamligini ta'minlashga katta e'tibor qaratib kelingan.

Shu ma'noda aytisak, O'zbekiston va Turkiya o'rtasida xotin-qizlar, oila, bolalar va ijtimoiy masalalardagi o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash har ikkala tomonning ham manfaatlariga xizmat qiladi. Bu borada bizning maqsad va qarashlarimiz mushtarak.

Bugungi forum xorijliklarni Turkiyada xotin-qizlar huquqi himoyasi borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar va o'zgarishlardan xabardor qilish imkonini bergani bilan ahamiyatli bo'ldi, deyish mumkin. Qolaversa, biz bugun butun dunyoda tahdidlar, qiyinchiliklar va tazyiqlarga uchrab kelayotgan xotin-qizlarga yordam berish hamda ularni qo'llab-quvvatlash borasidagi harakatlarni yanada kuchaytirish tarafdorimiz.

Aytish joizki, O'zbekiston bu borada o'zining qat'iy pozitsiyasiga ega ekanligini doimiy ravishda isbotlab kelmoqda.

Martin CHUNGONG, Parlamentlararo Ittifoq Bosh kotibi:

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning shu yo'nalishdagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaymiz. Chunki biz hamkorlikda jamiyatdagi har bir shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlashga erisha olamiz.

Ta'kidlamochimanki, panel muhokamalarida mintaqadagi yetakchi ayollarning ishtiroki va dunyoning boshqa hududlaridan ham vakillarning qatnashgani quvonarli. Albatta, ushbu maydon orqali fikr almashinuvi va gender tafovutni kamaytirishga erishish mumkin.

sezilarli ravishda kengayib bormoqda.

Qisqa davr ichida sohaga doir xalqaro standartlarga mos milliy qonunchilik bazasi shakllantirildi, so'nggi besh yilda 80 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingani bunga yorqin misoldir. Ayni chog'da 2 ta muhim qonun imzolangan.

Gender tenglik siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish va uning to'laqonli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi. Uni barcha soha va tarmoqqa joriy etish ishlari jadal olib borilayotir. Qolaversa, milliy qonunchiligimizga "normativ-huquqiy hujjatlarni gender ekspertizadan o'tkazish", "genderga asoslangan milliy byudjetni qabul qilish", "gender audit" kabi tushunchalar kiritilib, amaliyotga joriy qilinayotgani ham e'tiborga molik.

Shuningdek, forum davomida O'zbekiston parlamenti yuqori va quyi palatalarida, mahalliy Kengash deputatlari tarkibida, ijro organlarida ham ayollar o'rni ortib borayotgani ta'kidlanarkan, vazir va o'rinbosarlari, hokim va o'rinbosarlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlari tarkibida xotin-qizlar sinfi paydo bo'lgani va yil sayin ular soni ortib borayotgani alohida urg'ulandi.

Ikki kunlik forum doirasidagi



Yunus BO'RIYEV olgan suratlar.

muloqotlarda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotning barcha jabhasida xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilib, bu boradagi sa'y-harakat va imkoniyatlar umumlashtirildi.

Bundan tashqari, xotin-qizlarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish va imkoniyatlarini ochish, jumladan, mehnatga munosib haq to'lash, parvarishlash ishlarini baholash

va Osiyoda ayollar tadbirkorligi uchun qulay shart-sharoit yaratish bilan bog'liq masalalar muhokama qilinib, istiqboldagi vazifalar belgilab olindi.

Forum doirasidagi muzokara va muhokamalarda kelib chiqqan holda Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. O'z navbatida, mazkur xalqaro anjuman doirasida xorijlik mehmonlar qadimiy kentning diqqatga sazovor joylarini tomosha qilish imkoniyatiga ham ega bo'lishdi.

## So'z — forum ishtirokchilariga

Forumdan katta natija kutyapmiz. Hujjatda belgilangan bandlelarni amalga oshirishga bor imkoniyatimizni safarbar etamiz. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, jumladan, gender tenglikni ta'minlashda ushbu forumning o'rni katta bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Mazkur muloqotni Prezident tashabbusiga ko'ra har ikki yilda o'tkazish g'oyasini qo'llab-quvvatlaymiz. Bu juda yaxshi imkoniyat, ishonamanki qabul qilingan Samarqand deklaratsiyasi gender tenglikni ta'minlash borasida dasturlamal bo'lib xizmat qiladi.

Belen Sans LUKE, "BMT-Ayollar" tuzilmasining Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha mintaqaviy direktori:

— Ikki kunlik forum davomida bir qator ma'ruzachilarning nutqlari menga ko'tarinki ruh bag'ishladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva hamda "BMT-Ayollar" tuzilmasi ijrochi direktori Sima Sami Baxusning qat'iyatli chaqiriqlari barchaga mas'uliyat yukladi, desak, ayni haqiqat.

Ilgari surilgan g'oya va tashabbuslarni ro'yobga chiqarishda parlamentlar muhim o'rin tutadi. Biz mazkur tashabbuslarga sarmoya kiritishni ta'minlash yo'lida birlashishimiz kerak.

Shu bilan birga, barcha darajadagi ayollar yetakchilarining va fuqarolik jamiyati institutlarining ushbu jarayonning muhim qismi sifatida o'zini ko'rsatishiga ko'maklashishimiz talab etiladi.

O'ylaymizki, Samarqand forumi bu boradagi sa'y-harakatlarni hamda kuchlarni birlashtirishda qo'l keladi.

Sharlotta ADRIAN, Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi elchisi:

— O'zbekistonda xotin-qizlarga nisbatan zo'raonlikka to'liq barham berilayotgani, gender tenglik borasida ijobiy natijalar qayd etilayotgani, albatta, katta yutuq.

Biz O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida gender tenglikka alohida urg'u berilganligini ko'rdik. Muhimi, shu kabi ijobiy intilishlar tufayli salmoqli natijalarga erishilmoqda.

Xususan, talaba qizlarning soni oshmoqda, xotin-qizlarning moliyaviy imkoniyatlari kengaymoqda. Bu — oldinga yo'l, degani va biz bu yo'lida davom etishimiz kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bu boradagi intilishlari tahsinga loyiq. Bunday intilishlar Oliy Majlis Senati tomonidan ham kuzatilmoqda. Bularning barchasi pirovardida jamiyatni G'oya hamda innovatsion jihatdan yanada barqaror qilishi, shubhasiz.

Anas Fayyad KARMAN, BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili vazifasini bajaruvchi:

— So'nggi yillarda O'zbekistonda katta o'zgarishlar bo'ldi, deb ayta olamiz. Xususan, ayollar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning siyosiy sohalaridagi ishtirokini faollashtirish borasidagi izlanishlar hamda qo'lga kiritilgan natijalar bunga yaqqol dalil.

Prezident Shavkat Mirziyoyev hamda O'zbekis-

ton hukumatining moliya va kreditlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada yaxshilash orqali ayollar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan juda katta strategik tashabbuslariga guvoh bo'lyapmiz.

Siyosiy faollik, parlamentar, ma'muriy va boshqa sohalarida ayollar kvotasining ko'paytirilishi O'zbekistonda gender tenglik borasida olib borilayotgan ijobiy o'zgarishlarning isbotidir.

BMT Taraqqiyot dasturi bu yo'nalishda O'zbekiston bilan hamkorlikda faoliyat olib borish va sa'y-harakatlarni birlashtirishga tayyor.

Amira FAHMIY, Misrning O'zbekistondagi elchisi:

— O'zbekistondagi to'rt yillik faoliyatim davomida turli sohalarida jadal islohot va yangilanishlarga guvoh bo'lib kelayapman.

Markaziy Osiyo xotin-qizlari forumi O'zbekiston tomonidan o'tkazilayotgani bejiz emas. Negaki, bu mamlakatning xotin-qizlar muammolari, huquq va imkoniyatlarini ustuvor yo'nalishlar qatoriga qo'yayotganini ko'rsatadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa qator nufuzli tashkilotlar vakillarini to'plab ana shunday dolzarb yo'nalishda muhokama o'tkazilayotganidan O'zbekistondagi ayol elchi sifatida faxrlandim.

O'zbekistondagi har bir ayolga omad tilayman, ular eng yaxshisiga loyiq. Ularda juda katta salohiyat, muhimi, xotin-qizlarni qo'llab turgan Prezidenti bor. Butun dunyo bo'yab kuzatilayotgan har bir yaxshi tajriba bugun yurtingizda kechayotgani bilan tabriklayman!

Olga PEREPECHINA, Qozog'iston Respublikasi Parlamenti Senati Raisi o'rinbosari:

— Samarqandda bo'lib o'tgan Osiyo xotin-qizlari forumi O'zbekiston rahbariyatining amaliyotga tatbiq etilayotgan muhim tashabbusi bo'lib, dunyoning ko'plab mamlakatlarida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning o'zini o'zi anglashi uchun shart-sharoit yaratish borasida salmoqli qadam tashlash imkonini beradi.

Forumda ayollarning siyosiy va iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish borasidagi ko'plab mamlakatlar tajribasi har tomonlama muhokama qilindi va ishga solinmagan imkoniyatlar keng tahlildan o'tkazildi.

Markaziy Osiyoning bir qator mamlakatlarida ayollarning qonunchilik amaliyotida vakillik ishtirokini kafolatlaydigan qonunchilik qarorlari qabul qilingan. Bu tajriba bugun boshqa davlatlar uchun ham qiziq.

Forum davomida xotin-qizlarning barcha darajadagi ta'lim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va ularga bu borada ko'plab imtiyozlar berish masalalari ko'rib chiqilganini ham olqishlaymiz.

Abdulaziz YO'LDOSHEV ("Xalq so'zi").

# EZGU SA'Y-HARAKATLAR BIRGALIKDA VA HAMJIHATLIKDA DAVOM ETTIRILADI



## Birlashgan holda har qanday muammoga yechim topsa bo'ladi

**Muborak AHMEDOVA, "Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi:**  
— Darhaqiqat, qit'amizda ilk bor o'tkazilgan forum har tomonlama samarali va manfaatli uchrashuvlarga boy tarzda o'tdi. Avvalo, aytish kerak, deyarli har bir ishtirokchi O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini to'liq ta'minlash borasida erishilgan natijalarni e'tirof qilganida ich-ichimdan faxrlandim. Xususan, Jahon banki indeksida O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyoda eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat safida qayd etilgani, Ochiq gender ma'lumotlar indeksida eng yaxshi 20 ta davlat qatoridan joy olgani erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib qolmasdan, bu borada qilinayotgan tashkiliy-huquqiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarishimiz lozimligini anglatadi.

Mintaqamizning eng ilg'or fikrluvchi, yetakchi ayollari qatnashgan anjumanda ishtirok etar ekanman, masofa jihatidan bir-birimizdan qancha uzoqda bo'lmaylik, turli mamlakatlarda xotin-qizlar erishayotgan yutuqlar ham, ular duch kelayotgan muammolar ham bir-biriga o'xshashligiga amin bo'ldim. Hamjihatlikda, birgalikda muhkama qilish orqali umumiy muammolarga yechim topish kerak, degan g'oya bejiz takrorlanmadi. Chunki ayol va bolaning begonasi bo'lmaydi, davlatlar va jamiyatlardagi ziyolilar, faollar birlashgan holda, ular duch kelayotgan har qanday muammoni hal etsa bo'ladi.

Forumda xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, siyosat va biznesda ayollarga teng imkoniyatlar yaratish, ularning huquqlarini xalqaro standartlar asosida himoya qilish borasida salmoqli takliflar va g'oyalar ilgari surildi. Bu takliflarning barchasini hayotga tatbiq etish xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilikni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Jumladan, ayollarga nisbatan ba'zan jamiyatda uchray turgan ruhiy, ma'naviy yoki jismoniy tazyiqlarga kuchli qonunlarimiz asosida butunlay barham berish yo'llarini izlashda davom etishimiz kerak. Garchi Markaziy Osiyo

davlatlari orasida birinchilardan bo'lib "oilaviy zo'ravonlik" tushunchasiga aniqlik kiritib, zo'ravonliklarga qarshi javobgarlikni kuchaytirgan bo'lsak-da, bu boradagi ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqishimiz lozim. Toki, birorta ayol yoki bola zo'ravonlikka uchrmasin!  
Forumdan olgan xulosam shu bo'ldiki, biz xotin-qizlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularning kamситilishiga yo'l qo'ymaslik borasida boshlagan ishlarimizni munosib darajada davom ettirishimiz zarur.

## Xalqchil vazifalar umumiy manfaatlarini birlashtiradi

**Gulbahor SAIDG'ANIYEVA, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi:**

— Hozirda Osiyo qit'asi ayollari erishayotgan yutuqlar bilan birga, ularning hayotida hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar ham yetarli. BMT Bosh kotibi o'rmbosari, "BMT-Ayollar" tuzilmasi ijrochi direktori S. Baxus forumning ochilishida qayd etganidek, afsuski, dunyoda yuz berayotgan ko'plab inqirozlar ko'proq ayollar va qizlarga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. "Har uchinchi ayol hali ham zo'ravonlik va ta'qiblar uchun duch bo'lmoqda. Asosiy sabab kamситuvchi normal va qonunchilik tizimlaridir", dedi mehmon o'z chiqishida.

Haqiqatan ham, xotin-qizlar uchrayotgan deyarli har bir muammoning tub ildizi qonunlardagi bo'shliqlarga yoki ular ijrosidagi oqsosliklarga borib taqaladi. Garchi keyingi yillarda O'zbekiston qonunchiligida gender tenglikni ta'minlash, ayollar huquqlarini himoya qilish sohasidagi o'zgartirishlar sifat va son jihatidan ko'paygan bo'lsa-da, joylarda qabul qilingan qonunlardan xabaridorlik darajasi haminqadar ekaniga yoki qonunlarimizda kamchiliklar mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Bunday holatlar biz, parlament a'zolariga qonun ijodkorligi sohasini rivojlantirish borasidagi tashabbuslarni ilgari surishimizga muhim turki vazifasini o'taydi va hududlardagi o'rganishlarimiz asosida qonunlardagi bo'shliqlarni aniqlashga bor kuch-g'ayratimizni safarbar etmoq'imiz lozim.

Forum uzbeki doirasida qabul qilingan Samarqand deklaratsiyasida bir qator xalqchil vazifalar aks ettirilganiga umid qilaman:

*birinchidan*, Osiyo mintaqasidagi xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini

yanada yaxshilashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz lozim; *ikkinchidan*, mamlakatlardagi ayollarning siyosiy va huquqiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda davom etishimiz zarur; *uchinchidan*, mintaqada ayollar maqomini ko'tarishga qaratilgan madaniy va gumanitar loyihalarni hamkorlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq;

*to'rtinchidan*, eng muhim taklifim shundan iborat bo'lardiki, Osiyo ayollari duch kelayotgan muammolar ochiq tarzda muhkama qilinishi lozim. Zero, ochiqlikni ta'minlamasdan turib, muammoning sabab va oqibatlarini bilan kurashish bo'lmaydi.

Qisqacha aytganda, ayol qaysi davlatda yashamasin, o'z orzu va maqsadlariga to'siqsiz erishishi va oilasiga, jamiyatga nafi tegishi uchun barcha sharoit va huquqiy asoslar yaratilgan bo'lishi shart.

## Tajriba almashishda o'ziga xos platforma

**Dilbar MAMAJONOVA, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi:**

— Osiyo mintaqasi davlatlari yetakchi ayollarining davlat va jamiyat boshqaruvi hamda iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada kengaytirish bo'yicha o'zaro hamkorligi va tajriba almashinuvi ushbu forumning ahamiyatini yanada oshirdi.

Qatnashchilar O'zbekiston parlamenti yuqori va quyi palatalarida, mahalliy Kengash deputatlarini tarkibida, ijro organlarida ayollar o'rnini ortib borayotganini qayd etib, bugun ular vazir, vazir o'rmbosari, hokim va hokim o'rmbosari, yirik nodavlat notijorat tashkiloti rahbari lavozimida samarali mehnat qilayotganini e'tirof etdilar. Zero, parlamentdagi ayol vakillar xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga ta'sir qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'z mamlakatidagi ayollarning dard-u tashvishi, qiziqishlari va intilishidan xabardor bo'lgani bois xotin-qizlarga oid siyosatni ishlab chiqish, ustuvorliklarni belgilash va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga hissa qo'shadigan kuchli qonunchilik bazasini yaratishda faol ishtirok etadi.

Bugungi kunda ham global miqyosda, ham Osiyo qit'asi mamlakatlarining milliy strategiyalari doirasida parlament tashabbuslari orqali xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan

muhim yutuqlarga erishilayotganini alohida qayd qilish joiz.

Bunday yuqori darajadagi tadbirlarni o'tkazish tashabbusi xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lishga intilayotgan yangi O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga

egalarini, balki mamlakatimiz parlamenti uchun ham foydali bo'lib, bu boradagi g'oya va tashabbuslarni ilgari surishda hamda o'zaro tajriba almashishda o'ziga xos platforma vazifasini bajardi, desak, yangilashmaymiz.

## FAKT VA RAQAMLAR



Jahon banki indeksida O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatoridan, Ochiq gender ma'lumotlar indeksida eng yaxshi 20 ta davlat qatoridan joy oldi.



2020 — 2023-yillar davomida ayol deputatlar 23 ta qonun loyihasini ishlab chiqish va parlament muhkamasiga kiritishda bevosita ishtirok etgan.



Saylov kodeksiga kiritilgan o'zgartirishga ko'ra, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka ko'rsatiladigan nomzodlar umumiy sonida ayol nomzodlarning ulushi 40 foizga yetkazildi.

## Deputatlik korpusi vakillari yanada faol bo'ladi

**Mohira XO'JAYEVA, O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi:**

— Ushbu forum biz, parlament a'zolariga O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga qo'shayotgan hissamizga chetdan turib nazar solishga imkon berdi. Asosiy g'oyalar va konstruktiv takliflar ilgari surilgan forumning har bir ishtirokchisi, shu jumladan, deputatlar bir qator savollarga javob izlay boshlagan bo'lsa, ajabmas.

Nima gilsak, qanday yo'l tutsak, opa-singillarimiz o'z huquqlarini biladi? Qonunchiligimizning qaysi joyida bo'shliq mavjud? Yoki qaysi qonunlarning ijrosida sustkashlikka yo'l qo'yilayapti? Bu boradagi huquqiy bazani takomillashtirishda ayol deputatlarining o'rnini, ishtiroki sezilyaptimi?

Avvalo, aytish kerak, to'rtinchi chaqiriq Qonunchilik palatasi faoliyatining o'tgan davrida, ya'ni 2020 — 2023-yillar davomida ayol deputatlar 23 ta qonun loyihasini ishlab chiqish va parlament muhkamasiga kiritishda bevosita ishtirok etdi. Umuman olganda, parlamentimizda ko'rib chiqilgan va qabul qilingan qonunlarda xotin-qizlarning ta'lim olish huquqlarini kengaytirish, salomatligini mustahkamlash, ayollar o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunlarning sifati va soni sezilarli darajada o'sdi.

Xususan, 2022-yil dekabrda qabul qilingan tegishli qonunga asosan ilk bor O'zbekistondagi davlat tashkilotlarida genderga oid audit o'tkazish tartibi belgilandi. Endilikda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida, jumladan, kadrlar siyosatini olib borishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilganligi, shuningdek, genderga doir kompleks yondashuv holatlari o'rganilmoqda va baholanmoqda. 2023-yil aprelda qabul qilingan qonunga asosan esa Jinoyat hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar o'zgarishlarga muvofiq, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka ko'rsatiladigan nomzodlar umumiy sonida ayol nomzodlarning ulushi 30 foizdan 40 foizga yetkazildi. Qonunlarimizdagi bu kabi o'zgartirishlar ayollarning jamiyat hayotidagi o'rnini va nufuzini yanada kuchaytirishga, ularning huquq va manfaatlarini kafolatlashga xizmat qilmoqda.

Forumning parallel sessiyasida xotin-qizlar iqtisodiy holatini yaxshilashda parlamentning o'rnini muhkama etilgani ayni muddao bo'ldi. Sessiyada parlament a'zolari xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga ta'sir qilishda muhim rol o'ynashi, bu boradagi tegishli qonunchilik bazasini rivojlantirishda o'rnini kattaligi qayd etildi.

O'z navbatida, biz, deputatlik korpusi vakillari xotin-qizlarimizga jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida faol qatnashishiga, ularning iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy muammolarini hal qilishga, qolaversa, davlat va xususiy sektorda gender muvozanatini ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni rivojlantirishga hissa qo'shishda davom etamiz.

# YANGI IJODIY PARVOZLAR SARI RAG'BAT

Poytaxtimizdagi "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida "Oltin qalam" XVIII Milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovning g'olib va sovrindorlari tantanali taqdirlandi.

Muhtasham saroy foyesida taqdirlash marosimi ishtirokchilari va mehmonlari, ustoz jurnalistlar, soha fidoyilari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, talabalar, xalqaro tashkilotlar va elchixonalar vakillari, qator xorijiy davlatlardagi mediauyushmalarning mutasaddilari kutib olindi. Kamer orkestr ijrosida kuy-qo'shiqlar yangradi, hunarmandchilik mahsulotlari va kitoblar ko'rgazmasi tashkil etildi. OAV xodimlari uchun press-xoll faoliyati ham yo'lga qo'yildi.



## Tanlov

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan ushbu tanlov o'tgan yildan boshlab yangicha nizom asosida tashkil etilmoqda. Prezidentimizning 2022-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada muhim dasturlamal bo'lyapti.

Tadbirda mamlakatimizda so'z erkinligi va jurnalistika rivojiga e'tiborning yorqin ifodasi sifatida "Oltin qalam" Milliy mukofoti ham mazmun va ko'lam jihatidan yildan-yilga boyitib borilayotgani ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbarining yuqoridagi qaroriga muvofiq, tanlov g'oliblarini rag'batlantirish ko'lami ham yanada kengaydi. Jumladan, bosh milliy mukofot uchun avtomobil taqdim qilinoqda. Shuningdek, birinchi o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari, ikkinchi o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 175 baravari, uchinchi o'rin egasi bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravari darajasidagi pul mukofoti bilan taqdirlandi. Rag'batlantiruvchi nominatsiyalar soni va ularga beriladigan pul mukofotlari ham oshgan. Xususan, 12 ta rag'batlantiruvchi nominatsiyaning har biriga bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravari darajasida bir martalik pul mukofoti ajratilyapti.

Ijodiy ishlarni saralashda ham ochiqlik va shaffoflikka e'tiborning kuchaygani mukofotning nufuzini, ommabopligini yanada yuksaltirmoqda.

Bunday e'tiborga mos ravishda tanlovda qatnashuvchilar soni ham yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bu yilgi tanlovga televideniye yo'nalishida mamlakatimizdagi davlat va nodavlat telekanallarida faoliyat olib borayotgan



98 nafar jurnalist o'z materiallarini taqdim etgan bo'lsa, radio yo'nalishida 26 nafar, bosma OAV yo'nalishida esa eng ko'p — 178 nafar, internet nashrlari yo'nalishi bo'yicha 75 nafar, "Chet ellik jurnalistning O'zbekiston haqidagi eng yaxshi material uchun" nominatsiyasida ham har yilgidan ko'p — 40 dan ortiq davlatlardan 100 nafarga yaqin jurnalistlar qatnashgan. Bu yilgi tanlovning o'ziga xos jihatlardan biri shundaki, odatda har yili jamoaviy qatnashuvchi tahririyatlar soni besh-o'nita bo'lardi. Joriy yilda oldingi yillardagiga nisbatan jamoaviy ishtirok etuvchilar soni uch barobar oshgan, ya'ni 40 ga yaqin tahririyatlar tanlovga ijodiy ishlarni taqdim etgan.

Xalqaro tanlovda "Publitsistik janrdagi eng yaxshi kitob uchun" yo'nalishi 12 ta nominatsiyadan biri sifatida belgilangan. Ushbu nominatsiya bo'yicha 22 nafar jurnalist 30 ga yaqin publitsistik janrdagi kitoblari bilan ishtirok etdi. "Eng yaxshi fotoreportaj uchun" nominatsiyasi g'olibi esa 47 nafar fotojurnalistning 1500 ga yaqin

ijodiy ishlarni baholash orqali aniqlandi. Bu yo'nalishda ishtirok etgan ijodkorlar soni o'tgan yildagiga nisbatan qariyb uch barobar oshgani fotojurnalistning jamiyat hayotida faolligidan dalolat beradi. Rag'batlantiruvchi nominatsiyaning qolgan 10 ta yo'nalishi g'oliblari tanlovning televideniye, radio, bosma nashrlar va internet nashrlari bo'yicha 550 ga yaqin OAV vakillari orasidan mukofotga loyiq ko'rilgan.

Tanlovga taqdim etilgan ishlar hay'at a'zolari tomonidan bugungi kun talablari — yuksak professionalizm, jurnalistning fuqarolik pozitsiyasi, tanqidiy-tahliliy mushohada, so'zga mas'uliyat va ifoda mahorati, ijodiy faoliyatga yangicha yondashuv mezonlari asosida ko'rib chiqildi. Tantanalari tadbirlari televideniye, radio,

Biz uchun yanada quvonarlisi, tanlov g'oliblari safida hamkasbimiz ham bor. "Народное слово" gazetasi mas'ul kotibi Nurlan Usmonov bosma nashrlar yo'nalishi bo'yicha 2-o'ringa sazovor bo'ldi. Jonkuyar va talabchan jurnalistni ushbu muvaffaqiyat bilan tabriklab, unga yangi ijodiy marjalar sari dadil odimlashda kuch-quvvat, g'ayrat-shijoat tilaymiz.

**Diishod KARIMOV**  
("Xalq so'zi").

# INTENSIV O'RIKZOR IKKI YILDA HOSILGA KIRDI

Quva tumanining "Turk" mahalla fuqarolar yig'ini hududida yillar davomida qarovsiz yotgan dasht yerlari o'zlashtirilib, 80 gektar yerda Turkiya tajribasi bo'yicha intensiv bog' barpo etilgan edi.

## Intilish

— Ikki yilda hosilga kirgan o'rikzor mevalari bugungi kunda MDH mamlakatlariga eksport qilinmoqda, — deydi "Ashurov Mo'minjon" meva-sabzavotchilik klasteri rahbari Karimjon Ashurov. — Shu tariqa joriy yilda 100 tonnadan ortiq o'rik eksport qilishni mo'ljallaganmiz.

Bog'da Turkiya texnologiyasi asosida yuz foiz to'chilatib sug'orish joriy etilgan bo'lib, bu suvni an'anaviy usulga qaraganda kamida besh-olti marotaba tejash hamda boshqa xarajatlarni ham sezilarli darajada qisqartirish imkonini berayotir. O'z navbatida, bunday zamonaviy yondashuv natijasida

ko'chatlar bir tekis rivojlanib, hosildorlik yuqori bo'lishi ta'minlanayapti.

E'tiborlisi, meva-sabzavotchilik klasteri qoshida tashkil etilgan ko'chatchilik xo'jaligida joriy yilning o'zida mamlakatimiz bo'yilab 2 milliard so'mlik o'rik ko'chatlari yetkazib berildi.

Hozirda 1 gektar yerda transport-logistika markazi bunyod etish, mahsulotni qadoqlash, yuklash jihozlari ishlab chiqarish sexi, 2 ming tonna sig'imga ega muzlatkich omborxonaga qurish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda 70 ta doimiy va 200 dan ziyod mavsumiy



ish o'rinlari yaratilgan meva-sabzavotchilik klasteri tasarrufida ilm-fan yutuqlari va innovatsion g'oyalar asosida yana 30 gektar yerda mevazor bog' barpo etish harakati boshlandi. Bu qo'shimcha 50 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Bundan tashqari, meva-sabzavotchilik klasterida gilos, shaftoli bog'lari, chorvachilik va baliqchilik tarmog'i ham tashkil etilgan.

**Botir MADIYOROV**  
("Xalq so'zi").

# Okeanortida dasturxon bezagi sanalغان mahsulot Vobkentda yetishtirilmoqda

Quyov, tovuq go'shti — parhezboz. Bu borada kurkaniki ularidan qolishmaydi. Tibbiyot xodimlarining ta'kidlashicha, kurka go'shti tarkibida ko'p miqdorda "A" va "E" vitaminlari, temir, kalsiy, magniy moddalar bor. Xolesterin miqdori past. Bu esa go'shtning foydali xususiyatlarini organizmga tez va batamom singishini anglatadi. Muhimi, kurka go'shtidan tayyorlangan taomlar lazzatli, shu bilan birga, yengil hazm bo'ladi.

## Omilkorlik

Aynan shu jihatlarini hisobga olgan Jo'rabek Hikmatov xorijdan 200 bosh zotdor kurka keltirib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirgan holda ko'paytirmoqda. Vobkent tumanidagi Latifsubongar mahallasida istiqomat qiluvchi bu yurtodoshimiz hovlisida tegirmon ham qurgan. Tadbirkor o'tmishda "dengizorti tovuqlari" deya ta'riflangan bu jonivor uchun yegulniki shu yerning o'zida tayyorlayapti.

— Dunyoning ko'pgina davlatlarida har boshidan 20 kilogrammdan oshirib go'sht, bir mavsumda 70 — 90 dnda tuxum olish mumkin bo'lgan zotdor kurkalari parvarish qilinayapti, — deydi u. — Bizdagi mahalliy kurkalarning mahsuldorligi esa nisbatan past. Mutaxassislar bilan maslahatlashdim. Ularning yo'l-yo'rig'i asosida zotdor kurkalarni mahalliy iqlim

sharoitiga moslashtirayman. Jo'jasini 150 kun davomida parvarishlab, undan 20 kilogramm go'sht olish mumkin. Maqsadim ular sonini 30 ming boshga yetkazish.

Darvoqe, kurkaning kelib chiqishi Amerika qit'asi bilan bog'liq. Ushbu parranda go'shtining sifati yovvoyi qushlarni kabi mazali va xushta'm. Shu bois bo'lsa kerak, necha asrdiki, okeanortida, aniqrog'i, Kanada va AQSHda kurka go'shtidan tayyorlangan taomlar bayramlarda dasturxon bezagi sifatida alohida qadrlanadi.

Hikmatovlar xonadoniga kelsak, oila yaqinda uch ming bosh kurka sotib, salkam ellik million so'm daromad qildi. Ish baridan kelib tursa, Jo'rabek Hikmatov istiqbolida kurka go'shtini qayta ishlab, uni yarmiyatyor mahsulot holida naqaft ichki, balki tashqi bozorga ham chiqarish niyatida.

**Istam IBROHIMOV**  
("Xalq so'zi").

# BAXSHILAR

# O'TMISHNING AKS SADOSI VA BUGUNGI KUNNING JARANGDOR OVOZIDIR

# QIRQ KUNLIK GUL SAYLI

Insoniyatning ilk qo'shig'i alla bo'lsa, bashariyatning birinchi shoiri baxshidir. Ilk unvonsiz xalq shoiri ham baxshilar bo'lgan. Shoir ham, baxshi ham xalq dardini kuylaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, baxshi — xalq ichida yurib, uning hayotini bevosita ko'rib, dardini kuylaydigan shoiridir. Shu bois ham xalqsiz baxshini va baxshisiz elni tasavvur etib bo'lmaydi.

## Tadqiq

Qadimdan baxshilar ulus orasida juda katta obro'ga ega bo'lgan. Ular hatto do'mbira chertib urushlarni to'xtatib qolgan, o'zaro nizolarni tinch yo'l hal qilgan. Qolaversa, xalqlarning tarixi, ularning bir-biri bilan do'stona munosabatlari-yu jang-u jadallari haqidagi ma'lumotlarni, tuyg'ularni, hayajonlarni "Go'ro'g'li", "Alpomish" day mahobatli va qadimiy adabiy obidalar — dostonlar bag'riga jo aylab bizgacha yetkazgan.

Albatta, xalqlar o'tmishi faqatgina qon-qardoshlik rishtalari, o'zaro ittifoqchilik va jang-u jadallardagina iborat emas. Ularning paydo bo'lishi, yashash tarzi, e'tiqod-u madaniyati, xarakter, davlatchilik tarixi haqidagi kompleks ma'lumotlarni biz baxshilar ijodidan bilib olamiz. Demak, baxshi faqatgina shoir bo'lmay, o'z xalqi kechmishi haqida xabar beruvchi tarixchi, qomusiy olim hamdir. Faqat ularning olim-u tarixchilardan farqi shuki, ilm ahli o'tmish haqida faktlarga tayyanib axborot bersa, baxshilar o'z xalqi tarixiy xotirasini badiiy ijod mahsuloti qatiga singdirib, Go'ro'g'li-yu Alpomish kabi xalq genetikasini o'zida aks ettirgan qahramonlar fitratiga joylab, so'z san'ati vositasida avloddan avlodga yetkazadi.

Shuning uchun ham buyuk jahongir bobomiz Amir Temur ta'bir bilan aytganda, "turkning bosh bo'g'ini" sanalgan o'zbek degan shonli va ulug'

turkiy millatning xalq xotirasi, tili-yu dili bo'lgan baxshilar yurtimizni 130 yil bosqinchilik asoratida tutib turgan Chor Rusiyasi va Sho'ro hukumati tomonidan ayovsiz qatag'on qilindi, surgunga yuborildi, qamoqxonalariga tashlandi. Mana shuning uchun ham o'zbekning 70 dan ortiq dostonlarini yod bilgan Muhammad Jomurod o'g'li Po'lkanday shoir-baxshilar bandi qilinib, hibsdan sil kasalidan halok etildi.

Chunki mustabid tuzum bilan ediki, buyuk millatni shonli xotirasidan uzmay turib, uni butunlay yengib bo'lmaydi. Xalq o'zligidan judo qilinmas ekan, u baribir bosh ko'taraveradi. Mustamlakachilar qora niyatlariga millatning tili bo'lgan shoir-u baxshilarni, olim-u ziyolarni — el-yurtga moddiy, ma'naviy naf teggadigan odam borki, qatag'on-u qirg'in qilib erishdi.

Albatta, bunday yovuzliklarga millat oydinlari tomoshabin bo'lib turgani yo'q. XX asr boshlarida zamonaviy o'zbek folklorshunosligiga asos solgan Hodi Zarif kabi olimlar, Hamid Olimjon singari fidoyi shoirlar O'zbekistonning baxshichilik maktablari vujudga kelgan hududlariga ilmiy ekspeditsiyalar yushirib, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li kabi buyuk baxshilardan o'zbek va turkiy xalqlarning ulkan adabiy obidalarini bo'limish "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi dostonlarni yozib olib, bizga o'lmas ma'naviy meros qoldirdi.

Nomi zikr etilgan turli va boshqa dostonlar, ularning turli baxshilar

tomonidan kuylangan versiya va variantlari turli yillarda amalga oshirilgan folklor ekspeditsiyalarida Hodi Zarif, Mahmud Zarif, Muzayyana Alviya, To'ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Asqar Musaqluv, Zubayda Husainova, Mamatqul Jo'rayev, Shomirza Turdimov, Jabbor Eshonqul, Latifa Xudoyqulova, O'ktam Hakimov singari zahmatkash va fidoyi olimlarimiz tomonidan yozib olinib, o'tgan davr bobaynida qayta-qayta nashrga tayyorlandi va chop etildi. Millatimiz uchun qimmatli bo'lgan ushbu madaniy-ma'naviy boylikning kattagina qismi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti arxivida saqlanadi.

Aytmoqchimizki, to'qson yil mustabid tuzum ta'ziyiq ostida kechgan, Navro'z kabi tarixiy bayramlari va boshqa qadimiy urf-odatlar hukmron tuzum tomonidan taqiqlab qo'yilgan o'tgan yuz yillikda bu ishlarni amalga oshirish katta jasorat hamda fidoyilik talab etar edi. Shukrki, millatimiz oydinlari yelkalaridagi muqaddas vazifani sharaflab o'ziga qoldirdi. Millat uchun g'oyat muhim bo'lgan ushbu ezgu ishlar shu bilan to'xtab qolgan yo'q, albatta. XXI asr bo'shlag'ida, ya'ni 1999-yilda "Alpomish" dostonining 1000 yilligi yurtimizda va xalqaro miqyosda YUNESKO tadbirlari doirasida keng nishonlandi. Keyinroq, 2019-yilda Termiz shahridagi maydonlarning birida haykaltarosh Qurbon Norxo'rozov yaratgan Alpomish monumental haykali ko'z rostdi. Qo'rg'on, Bulung'ur va Narpay dostonchilik maktablari paydo bo'lgan Samarqand zaminida bu maktablarning buyuk vakillari Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Muhammadqul Jomurod o'g'li Po'lkani kabi baxshi-shoirlarga yodgorlik

o'rnatildi. "Boysun bahori" an'anaviy folklor festivalini o'tkazish yo'lga qo'yildi. Ko'p jildli "Qoraqolpoq folklori" to'plamlari chop qilindi...

Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilgan xayriy ishlar bois baxshilarning qaddi ham, qadri ham yanada yuksalmoqda. Bungacha baxshilar, asosan, to'y-larda, xalq sayillari, kurash va ko'pkarialarda doston-u temalarini kuylash imkoniga ega edi. 2018-yil 1-noyabrda O'zbekiston tarixida ilk bor yurtimizda "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida" Prezident qarori e'lon qilinib, unda har ikki yilda bir marta mazkur festival o'tkazilishi belgilab qo'yilgach, ular o'z iste'dodini ushbu xalqaro san'at anjumanida namoyishi etish imkoniga ega bo'ldi. 2019, 2021 va 2023-yillarda Termiz, Nukus va Guliston shaharlarida ushbu nufuzli festival yuksak saviyada o'tkazildi. Termiz shahrida baxshichilik maktabi ochilgach esa baxshilar "Ustoz — shog'ir" an'analari mazkur maktabda bolalarga saboq berish orqali davom ettirmoqda.

2019-yil 14-mayda Prezidentimizning mazkur soha istiqbolini ko'zlagan "Baxshichilik san'atini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi yana bir qarori e'lon qilindi. Mazkur hujjatda belgilangan vazifalar ijrosi o'laroq 2020-yilda baxshichilik san'atini YUNESKoning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga kiritildi. Shu yili Termizda Respublika baxshichilik san'ati markazi hamda uning huzurida Baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasiga asos solindi. Ushbu shaharda ochilgan Baxshichilik maktabi negizida Baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan respublika maktab-internati tashkil etildi.

Bugungi kunda 100 jildlik "O'zbek xalq yodgorliklari" ruknida eng qadimgi davrlardan to shu kungacha yaratilgan o'zbek xalq og'zaki ijodi: dostonlar, etkalar, qo'shiqlar, maqollar, topishmoqlar va boshqa janrlarda yaratilgan folklor asarlari namoyish etilmog'ida. Xalq ta'limi hamda oliy ta'limda folklor, xususan, baxshichilik san'ati nazariya va amaliyot birligida o'rgatib kelinmoqda...

Bu ro'yxatni yanada uzoq davom ettirish mumkin. Muxtasar aytganda, folklor va baxshichilik san'atiga bo'lgan davlat siyosati darajasidagi ulkan e'tibor yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar singari bu sohada ham yangi era boshlanganidan darak beradi.

Nasrullo ERGASHOV, O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktranti.

Xalq bor ekan, uning og'zaki ijodi ham, albatta, bo'ladi. Uning og'zaki ijodi mavjud ekan, bu ijodni o'rganuvchi fan va olimlar ham, shubhasiz, bo'lajak. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Ravshan", "Kuntug'mish" kabi ulkan eposlarga ega, Sherna baxshi, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'lkani shoir, Bola baxshi, Shomurod baxshi, Qodir baxshi kabi ulug' baxshilari o'tgan elning baxshichilik san'ati esa dunyo bor ekan, yashayveradi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, baxshilar nafaqat xalq o'tmishining aks sadosi, ayni paytda bugungi kunning ham jarangdor ovozidir.



Namangan shahrida har yili bo'lib o'tadigan an'anaviy gullar festivali nafaqat mamlakatimiz aholisi, balki chet elliklarni ham o'ziga oharabodek tortmoqda. Qarangki, bundan 63 yil avval o'tkazilgan mo'jazgina ko'rgazmadan boshlangan gul sayli uning ixtirokchisi bo'lgan tabiatsevar insonlarning farzandlari g'ayrati bilan chuqur ildiz otdi va namanganliklarning chinakam qadriyatlaridan biriga aylandi.

## Taraddud

O'tgan vaqt ichida oddiy havaskorlikdan boshlangan ishtiyoq joylarda san'at darajasiga ko'tarildi. Viloyat markazida istiqomat qiluvchi Mo'minovlar sulolasi shug'ullanib kelgan kaktuschiilik bunga misol. Ushbu o'simlikning 100 dan ortiq turli parvarishlanadigan xonadonda ilk bayramda ko'rgazmaga qo'yilgan kaktus hamon yashab turibdi. Uychi tumani O'rkatay qishlog'ida yashovchi Karimovlar avlodining gulchiilikdagi ixtirokchisi ham butun O'zbekistonga namuna.

Umuman olganda, bugungi kunda nafaqat Namangan shahri, balki tuman markazlari, qishloqlarda ham bu kasb ommalashib, u bilan professional shug'ullanayotgan xonadonlar soni mingdan ortib ketdi.

Gulchiilik bizga bobomiz Abdulkarim Qosimovdan meros, — deydi oltmish uch yoshli Halima ya Karimova. — U kishining hunarini otamiz Abdurahim Karimov bizga ham o'rgatdi va bir gektarlik plantatsiyada to'qqiz qiz uchun alohida gulzor yaratib berdi. Va bu biz, opa-singillarimiz daromadli biznes manbaiga aylangan. Masalan, men o'zim sakkiz sotilish issixona va o'chik maydonda yiliga ellik ming tupdan ziyod gul, manzarali buta va sitrus o'simliklarini parvarishlayman. Ular orasida har tupi to'rt million so'm atrofida sotiladigan palma ko'chatlarigacha bor. E'tiborli tomoni shundaki, hozirgacha nishonlangan gul bayramlarining birortasi sulolamiz vakillari ishtirokisiz o'tmagan.

Ahamiyatli, ham hunar, ham nafis san'at hisoblangan ushbu sohaning jadal rivoji keyingi yillarda uni sanoatlashirish, biznesning daromadli tarmoqlaridan biriga aylantirish sari yo'l ochdi.

Xususan, davlatimiz rahbarining topshirig'i bilan 2019-yilda Namangan shahrida gulchilar assotsiatsiyasi tashkil etilib, uning negizida ilmiy-amaliy markazning ishga tushirilishi, ushbu yo'nalishdagi mo'hir hunarmandlarni birlashtirish va tajribasini ommalashtirishda o'ziga xos maktab vazifasini o'tay boshladi.

Davlatobod tumanida ajratilgan 16 gektarlik plantatsiyada 25 sotixdan o'z maydoniga ega bo'lgan 52 nafar usta gulchi tomonidan noyob navlarni mahalliy iqlimga moslashtirish orqali ko'paytirish ishlari jadal olib borilmoqda. Ya'ni vaqtga qadar

Namangan viloyatining ichki va tashqi turizm rivojida muhim ahamiyat kasb etadigan, investitsiyaviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan, qolaversa, tinchlik, mehr-qo'lib, nafosat, madaniyat, do'stlik bayrami sifatida qalblarga zavq ulashuvchi gullar festivali anjumaniga kelgan har bir kishiga shukhli lahzalarni taqdim etishi, shubhasiz.

viloyatga gul urug'lari, asosan, Niderlandiya, Germaniya va boshqa davlatlardan keltirilib, ko'paytirilgan bo'lsa, izlanish va tadqiqotlar natijasida bugunga kelib uning 40 foizdan ko'prog'ini markaz plantatsiyalarida yetishtirish yo'lga qo'yildi. Bu, o'z navbatida, sohada eksport amaliyotlari imkoniyatini ham yuzaga keltirdi. Chunonchi, har yili sotuvga chiqarilayotgan 360 milliard so'mlikdan ziyod ko'chat va guldastalarning 30 foizga yaqini qo'shni davlatlar va Rossiya'ga yetkazib berilmoqda.

Joriy yilda o'tkaziladigan 63-xalqaro gullar festivalida anjuman maskanlari, shaharning ko'cha va xiyobonlari 65 turdagi 45 million tupdan ko'prog'ul ko'chatlari bilan bezanadi, — deydi assotsiatsiya rahbari Obidxon Qodirov. — Ularning asosiy qismi Davlatoboddagi plantatsiyamiz orqali yetkazib berilmoqda. Ayni paytda birgina Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog'ining o'zida besh minga yaqin kishilar ko'chatlarni o'tqazish va ko'rgazmalar yaratish bilan band.

Ma'lumotlarga qaraganda, o'tgan yil bir oy davom etgan festival tadbirlarini tomosha qilish uchun 4 milliondan ziyod kishilar tashrif buyurgan edi. Ularning 80 ming nafardan ko'prog'ini xorijiy sayyohlar tashkil etgan. Bu galgi anjuman esa qir kunga mo'ljallangan bo'lib, mehmonlarga zavqli damolim hadya etadigan dasturaf mazmuni ham shunga yarasha.

Shakllangan an'anadan kelib chiqib, anjumaniga 19-may kuni 200 ta avtomobil, 200 ta velosiped, 20 ta elektromobil bilan iborat avtoparad bilan start beriladi. Shundan so'ng Bobur bog'i, "Afsanalari vodiysi" tematik parkida olti hafta davom etadigan turfa kul ko'rgazmalar, madaniy-ma'rifiy va ko'ngilochar tadbirlar, ilmiy konferensiya anjuman mehmonlarga olamdan taassurot taqdim etishi, shubhasiz.

Festivalning tantanali ochilish va yopilish marosimlari "Yangi O'zbekiston" bog'ida bo'lib o'tadi, — deydi viloyat hokimining o'rinbosari Botir Nuriddinov. — Bu bilan o'z mavsumini boshlaydigan ushbu maskanda ham qurilish, yashil hududlar yaratish va manzarali daraxt hamda gul ko'chatlarini o'tqazish ishlari poyoniga yetkazilmoqda.

Qudratilla NAJMIDDINOV ("Xalq so'zi").

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Madaniyat vaziri Ozodbek Ahmadovich Nazarbekovga padari buzrukvori Ahmad ota NAZARBEKOVning vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

# SPORT

## xabarlari

### Bokschilarimiz xalqaro musobaqada qatnashmoqda

Shu kunlarda Rossiyaning Xabarovsk shahrida ikkinchi jahon urushi ishtirokchisi Konstantin Korotkov xotirasiga bag'ishlangan 12-xalqaro boks musobaqasi bo'lib o'tmoqda.



Mazkur turnirda Afrika, Osiyo va Yevropa qit'asining 19 mamlakatidan jami 150 dan ziyod bokschilar, jumladan, To'liq Qilichev murabbiyligidagi O'zbekiston erkaklar va ayollar terma jamoalari ham ishtirok etmoqda. Olimpiada chempionlari Bahodir Jalolov, Hasanboy Do'stmatov, jahon chempioni Abdumalik Xalakov, shuningdek, itqidorli bokschilarimiz Ruslan Abdullayev, Lazizbek Mullajonov, Iqboljon Xoldorov hamda kelajogi porloq yosh yigit-qizlardan iborat bokschilarimiz yurtimiz sharafini himoya qilaypti.

O'zbekiston boks federatsiyasi matbuot xizmati xabariga ko'ra, ushbu xotira turniri "Pariz — 2024" Olimpiada musobaqasi uchun tayyorgarlik vazifasini o'taydi.

### Mali bilan o'rtoqlik o'yinlari bo'lib o'tadi

Futbol bo'yicha O'zbekiston olimpiada terma jamoasi Parij shahrida bo'lib o'tadigan yozgi Olimpiada bahslariga munosib tayyorgarlik ko'rishni maqsad qilgan.

To'rt yillikning nufuzli musobaqasiga yo'llanmani qo'lga kiritgan Timur Kapadze shogirdlari iyun oyidagi FIFA kunlarida "Parij — 2024" o'yinlarining yana bir ishtirokchisi, Afrika vakili Mali davlati jamoasi bilan o'rtoqlik uchrashuvlarida maydonga chiqadi. Ushbu ikki bellashuv 7 va 10-iyun kunlari Toshkent shahrida o'tkazilishi mo'ljallangan.

"Xalq so'zi".

# UMRINGDAN BARAKA TOP, SAXOVATLI INSON!

## El yukini yelkasida ko'targan tadbirkor himmatidan bahramand oilalar shukronasi

Taqdir ekan, Javohir otasidan erta ajraldi. Bu judolik yetmaganidek, onasi ham bedavo dardga chalinib, o'n yil to'shakda yotdi. Onasining o'limidan so'ng ikki aka uch singlisi bilan ota uyida bo'quvchisiz bo'lib qolishdi. Akalar mahalladagi yaxshi odamlar ko'magida uylandi, singillarni uzatishdi. Javohir bironing yurtda ishlab, tirikchiligini o'tkazardi. Otasiz, yolg'iz onasi qo'lida zo'rg'a turmush kechirayotgan Ma'mura ismli qizga uylandi. Ko'p o'tmay, qaynonasi ham vafot etdi. Chin yetim bo'lib qolgan bu oilada farzand dunyoga keldi. Yaxshi niyat bilan Mashhurbek deb ism qo'yishdi. Hayot iziga tusha boshladi. Javohir faqat o'z uyi — o'lan to'shagi yo'qligidan siqilardi.

## Tadbirkor ma'naviyati

Shunday kunlarning birida mahalla raisi va ikki notanish kishi Javohirni yo'qlab kelishdi. "Biz bilan yuring" deyishdi. U hayron bo'ldi-yu, lekin oqsoqolning taklifini rad etmadi. Ularning mashinasida bir manzilga yetib kelishdi. Boyagi notanish odam Javohirga qarab: — Mana shu uy sizniki, o'g'lim, — dedi uning yelkasiga qo'lini qo'yib.

Dabdurdustdan Javohir hech narsani anglolmadi. Tushunsa ham o'ziga shunday shinam uy hadya qilinishiga ishonmadi. Nochorlikda ro'zgorini arang tebratib yurgan har qanday kishi kutilmagan bunday yangilikdan gangib qolishi rost-ku. Bu xuddi tushida bo'layotgandek edi, go'yo.

— Nimaga qarab turibsiz, kiring, shu uy sizning shaxsiy mulkingiz endi.

Javohir uy darvozasidan ichkariga kirar ekan, ko'zi jiqqa yoshga to'ldi. Beixtiroq onasining "Bolam, azob-uqubatlar ortidan, albatta, ro'shnolik keladi, dunyoda yaxshi odamlar ko'p" degan gapi yodiga tushdi. Xonalarga birma-bir kirib chiqdi. Orzu qilgan hamma jihozlar bor. Muzlatkichni ochgandani, unda qo'yilgan sarxil oziq-ovqatlarini ko'rib, xayr-u saxovat sohibini uzoq duo qildi. Keyin mehmonxonadagi javonga qo'yilgan Qur'on kitobi va joynamozi olib, ko'zlariga surtdi...

Bugun Javohir shu xonadonda oilasi bilan yashab kelyapti. Hamma hujjatlar o'zining nomiga rasmiylashtirilgan. Lekin uyni unga kim qurib berganidan mutlaqo bexabar.

— Rostdanam bu uyni menga kim hadya qilganini bilmayman, — deydi Javohir Rustamov. — Har gal hovuzga suv quyib ketayotgan haydovchiga pul beray desam, u "Haqi to'langan" deganida xijolat bo'laman. Rafiqam Ma'muraxonning qo'li chaqqon. Uyd qo'ni-qo'shnilarining ko'rpato'shagini qavaydi, issixonasi bor tadbirkorlar buyurtmasi asosida pomidor, bodring ko'chatlari uchun "stakan" yasaydi, xullas, halol mehnat qilib pul topyapti. O'zim neft-gaz tizimida ishlayman. Bugun men oilamizni nochor deya olmayman. Yaxshi yashayapmiz. Katta o'g'lim Mashhurbek 1-sinfda o'qiyapti. Unga "Katta bo'lsang, kim bo'lasan?" desam, "Uy quraman, odamlarga hadya qilaman" deydi. Uning gapini eshitib, onasiyam, men ham ich-ichimizdan quvonamiz. Axir, biz ham o'z paytida qilingan bu muruvvatni kimgaradig' yaxshilik sifatida qaytarishimiz kerak, shunda dunyoda yaxshiliklar aylanib yuradi.

Aytmoqchi, bu yangi uylarning birinchi chaqalog'i Javohir va Ma'muraxon Rustamovlar oilasida dunyoga keldi. Imronbek deb ism qo'yishdi. Qo'ni-qo'shnilar yig'ilgani bois oila quvonchi, hovli to'yiga aylanib ketdi.

Endi do'ppini boshdan olib bir mulohaza qilib ko'ring: Javohirga bunday shinam uyni kim hadya qildi? Uni qurgan saxovatli inson kim? Buni hech kim bilmaydi. Chunki saxovat chin ko'ngildan chiqsa, uni "Men qildim" deb aytishga hojat yo'q. Aytisa, savob minnatga aylanadi. Shukrki, oramizda bunday saxovatli odamlar juda ko'p. Ular borligi uchun ham hayotimiz

bar davom. Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi Yuqori Obron mahallasida bu tadbirkor bir emas, ikki emas, bir yo'la 14 ta shinam va ko'rkam uy qurib, kambag'al kishilarga hadya qilgan. Maqolamiz qahramoni esa uy olganlardan biri, xolos.

Bu lof emas. Qator qilib, namunaviy loyihaga asosida qurilgan kottej tipidagi 6 sotixli bu uylar uchun 20 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflangan. Xonalar zamonaviy jihozlar bilan bezatilgan.

Shu o'rinda "Havas qilsa arzigu'lik bu uylarni o'zi kim qurgan?" degan savol sizni ham qiziqtirayotgan bo'lsa ajab emas. Ammo buni men ham bilmayman. Ilgari "Uzumini yeng-u, bog'ini surishtirmang" degan maqolani eshitgan, hayron bo'lardim. Bugun esa bu maqol mag'zini chaqqanday bo'lyapman. "O'ng qo'ling berganini chap qo'ling bilmasin", deganlaridek, tadbirkor bu xayr-u saxovatni nom chiqarish, shuhrat qozonish yoki maqtanish uchun qilmagan. Shu bois kimgiligi oshkor etishni istamagan. Lekin kim bo'lsa ham, odamlarni, yurtni yaxshi ko'rish shundoq sezilib turibdi. Bo'lmasa, 2 kilo makaron, 4 ta nonni kam ta'minlangan fuqaroga uzatib turganini suratlariga muhrlayotgan, videolarga olayotgan, xullas, arzimas ishini ham dunyoga doston qilayotganlar kammi?

Bunday soxta saxovatpeshalik ko'pchilikning esasini qotirayotgan bir paytda Yuqori Obron mahallasida qad rostlayotgan uylar odamlarning e'tiborini tortdi. Binolar bitgach, tunukalari quyoshda yaltirayotgan uylarni ko'rib, "Qaniydi boshpanang shunday bo'lsa", deb havas qilganlar ko'paydi. Xonadonlar muzlatkich, kir yuvish mashinasi, televizor, oshxona, hammom va mehmonxonaga mebellari, serjilo gilamlar bilan

jihozlangach, mahalla ahli "Bunday viloyatimiz uylarida boylar yashasa kerak" deb o'ylashdi. Ammo uylar to'la-to'kis jihozlangach, yetti uxlab tushga kimgagan voqea ro'y berdi — barcha xonadonlar muhtojlarga hadya qilindi.

Shundaylardan biri — ikki bolasi bilan o'g'ay farzandlar qaramog'ida 9 yil qiyalib yashagan Nargiza Qahhorovaning gaplariga quloq tutamiz.

Turmush o'rtog'im vafot etgach, uning birinchi oilasidan bo'lgan farzandlari bilan bir uyda yashash qiyin bo'lib qoldi, — deydi u. — Ular uydan tezroq chiqib ketishimni kutishar, men esa Allohga bir boshpana topib ber, deb litjo qilardim. Iltijolarim Yaratganga yetib boribdi. Qarang, menga shu uyni hadya qilishdi. Fursat topdim deguncha duoga qo'l ochaman, shu saxovatpeshada odamni alqayman. Bilasizmi, endi men kambag'al emasman. Asosiysi, boshpanam bor: tovuq boqib, tuxum sotayapman. Ko'rpay-uqust tikaman. Qo'limga har xoni pul tushadi. O'g'lim Malikjon 4-sinfda, Abbosjon 1-sinfda o'qiydi. Ularni o'qitib, xuddi bizga uy hadya qilgan muruvvatli insondek tarbiyalayman. Albatta, mening farzandlarim ham muhtojlarga qayishadi. Shu kunlarni ko'rishni orzu qilib yashayapman.

Bu mushtirap ona, uning ikki jajji farzandi quvonchi, kelajagi uchun sarmoya tikkan tadbirkorimiz bunday savobli ishga qo'l urishiga albatta, yurtimizda ishbilamlikka keng imkoniyat, imtiyoz va yengilliklar yaratilgani sabab bo'lgan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lsamiz. Bunga javoban muruvvatli tadbirkor yurtimizda kambag'allar bo'lmasligi, farzandlar, onalar ko'zidan yosh oqmasligi uchun harakat qilmoqda. Aytib, bunday fidoyilik qaysi qahramonlikdan kam?

Yuqori Obron mahallasida yangi qurilgan o'n to'rta uyning chirog'inigina emas, o'n to'rta oilaning qalbiga chiroq yoqgan saxovat sohibi shu imoratlarni qurish uchun ketgan mablag'ni o'z shaxsiy manfaati yo'lida ishlatishi ham mumkin edi. Lekin u bunday qilmadi. Negaki, uning qalbi ma'naviyat yog'dularidan jilolanib turadi. Ma'naviy barkamol inson esa eng katta boylik elning quvonchi ekanini yaxshi biladi.

...Aslida ham, puldor odam boy emas, ma'naviyatli odam boydir.

Faxriddin BOZOROV ("Xalq so'zi").

## London shahrida O'zbekiston madaniyati kechasi bo'lib o'tdi. Tadbir davomida O'zbekiston madaniyati, san'ati, turizm va investitsiya salohiyatiga bag'ishlangan taqdimot ham o'tkazildi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542. 14 275 nusxada asitildi. Hajmi — 2 taboq. O'iset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktlab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va ummifiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obumani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Nashbachi muharrir A. Shernazarov.  
Mas'uhh Sh. Mashraboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.45 Topshirildi — 01.10

1 2 3 4 5 6